


ISSN 2010-5460

MAKTAB VA HAYOT

ILMIY-METODIK JURNAL

Maxsus son № 2





O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH VA PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK RESPUBLIKA TASHXIS MARKAZI

AVTOMOBILLARNI TA'MIRLASH TEXNIGI

Uning faoliyati avtomobillarni sozlash, zararlangan qismlarni almashtirish va qayta ta'mirlashdan iborat

ISH FAOLIYATINING

MAZMUNI VA ISH

SHARTI

Ishtab chiqarish, xizmat ko'rsatish va boshqaruv, faoliyat sohalari: transport, sanoat xizmati, avtomobil tuzatish mexanigi, avtomashinalarning tuzilishi va buzilish sabablari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi kerak; texnik chizmalar va diagrammalarini o'qiy olishi kerak; avtotransport vositasining turli tarkibiy qismlari bir-biriga qanday ta'sir qilishini tushunish; diagnostika, ta'mirlash, texnik ko'rik jarayonida texnologiyalarini bilish.

avtomobil moyi, maxsus vositalar, boshqa texnik va ta'mirlash uchun ishlatiladigan mahsulotlarni, avusiyatlari va ulardan foydalanish imkoniyatlarini bilishi zarur.



KASB TIPI "ODAM - TEXNIKA"

MUTAXASSISNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI

Avtomobil mexanikasida ko'pincha payvandlash ishlari ham bor. Bu kasbda jarohatlanish xavfi yuqori bo'lganligi uchun o'ta ehtiyotkorlik talab etiladi. Bu jarayonda kuyish, yoriq, chandiq va ko'karishlar sodir bo'lishi mumkin. Shu boisdan avtomobil mexanigidan juda ehtiyotkorlik, ziyraklik talab etiladi.

MUTAXASSISLIKKA QO'YILADIGAN TALABLAR

Maxsus uskanalar yordamida kerakli ta'mirlash ishlarni amalga oshiradi.

Shuningdek:

- yaxshi jismoniy sog'liq;
- aqliy balans;
- stressga chidamli bo'lish qobiliyati;
- aniqlik;
- javobgarlik;
- tahlil qilish qobiliyati ham juda zarurdir.



KASB EGALLASH YO'LLARI

Asosiy bilimlarni umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida olish mumkin

QO'LLANISH SOHASI

- avtotransport korxonalari;
- transport ustaxonalari;
- o'quv markaz va majmualari;
- servis stansiyalari va avtomashinalar boshqaruvi;

TIBBIY MONELIK

Tayanch-harakat tizimi kasalliklari, bo'yoc va eritmalarga allergik kasalliklar, ko'rish va eshitish organlari qobiliyatini pastligi



KASBIY O'SISH ISTIQBOLLARI

- 1-bosqich -shogird
- 2-bosqich -ta'mirlash ustasi
- 3-bosqich - o'liy toifali usta;
- 4-bosqich- tadbir-kor

TURDOSH KASBLAR

Aloqador sohalarni ixtisoslashtirish va rivojlantirish, vaqt o'tishi bilan tobora murakkab va keng ko'lami ishlarni bajarish bilan, tegishli kasblar doirasida yangi mutaxassisliklarni o'zlashtirish mumkin.



facebook.com/tashxismarkazi
t.me/hayotgaqoqshil
www.tashxis.uz
t.me/tashxismarkazi

MUNDARIJA

BOSH MUHARRIR

Liliya Gaynutdinova

TAHRIR HAY'ATI

Amanjol AYAPOV
Boris BLYAXER
Baxodir SOBIROV
Risboy JO'RAYEV
Sevara ZUPARXODJAYEVA
Lola MO'MINOVA
Vahobjon RAJPOV
Nargiza RAXMONQULOVA
Sherzod SHERMATOV
Shavkat SHARIPOV

Mas'ul kotib

Sayyora Alimxodjayeva

Adabiy muharrir

Sayyora Alimxodjayeva

Kompyuterda terish va dizayn

Mirtohir Xoliqov

Muallifning fikri har doim ham tahririyat fikriga to'g'ri kelavermaydi. Tahririyat maqolalarning uslubiy xatolarini to'g'rilash va qisqartirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Tahririyatga yuborilgan maqolalar egasiga qaytarilmaydi va taqriz qilinmaydi.

Mualliflarning familiyasi, ismi, sharifi ularning pasportlari ma'lumotlariga muvofiq holda yoziladi.

Мнение редакции не всегда совпадает с мнением автора. Редакция оставляет за собой право на стилистическую правку и сокращение статей. Присланные в редакцию рукописи не возвращаются и не рецензируются.

Фамилия и инициалы авторов пишутся согласно данным их паспорта.

Muassislar:

O'quvchilarni kasb-hunarga
yo'naltirish va psixologik-pedagogik
respublika tashxis markazi
«MAKTAB VA HAYOT» M.CH.J.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda

«MAKTAB VA HAYOT» dan olindi,
deb ko'rsatilishi shart.

Jurnal 2001 yildan
chiqa boshlagan.

MANZIL:

100095, Toshkent sh.,
Olmazor t., Ziyo ko'chasi, 6A uy.
Tel: (0371) 246-21-02
E-mail: maktabvahayot@sarkor.uz

OBUNA INDEKSI - 1019

R.R.Atajanova, R.B.Hojiyev.

Barkamol avlodni tarbiyalash – davr talabi 2

A.M.Shofqorov

Chizmachilik va chizma geometriya fanlarini o'qitish orqali
o'quvchilarning grafik savodxonligini oshirish 3

R.B.Hojiyev, R.R.Atajanova.

Pedagogik ta'limning innovatsion klasteri – ta'lim tizimining renessansi sifatida 4

U.Sh.Ismatov.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini grafikmateriallarda ishlashga o'rgatish orqali ijodiy
kompetensiyalarini rivojlantirish 6

I.O.Jumayev.

Chizmachilik darslarida AutoCAD dasturidan foydalanishning
yutuq va kamchiliklari tahlili 7

U.Sh.Ismatov.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilariga grafik materiallarda
ishlash texnologiyalarini o'rgatish 8

B.B.Ko'kiyev.

Talabalar emotsional intellektini tadqiq etishning psixologik imkoniyatlari 9

M.J.Maxmudov.

Tasviriy san'atda rahim ahmedovning, "ona o'ylari" asarini o'rgatish orqali
o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish 11

S.T.Sobirov, N.R.Sayfiyeva.

O'quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalashda tasviriy san'at
fanining va o'qituvchining o'rni 13

X.X.Muratov.

Tasviriy san'at fanidan mustaqil ta'limni tashkil etish va boshqarishda
"ispring" dasturiy ta'minotining ahamiyati 14

S.T.Sobirov.

O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi
ba'zi omillar va ularni bartaraf qilish yo'llari 18

S.M.Abduxamidov, A.M.Suyarov.

Yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirishda ta'lim islohotlarining o'rni 20

C.O.Ataxanova, G.A.Chubarova.

Pовышение качества преподавания начертательной геометрии в вузах 22

S.X.Xabibullayev.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida sport to'garaklarini tashkil etishning samarali usuli 23

I.Baxriyev.

Oliy ta'limda talabalarni manzara janrida ishlashga o'rgatish va kasbiy tayyorlash 25

B.III.Karapov.

Педагогическая поддержка развития профессиональной компетентности
преподавателя физической культуры 27

X.E.Sultanov.

Ta'lim klasteri orqali o'quv muassasalarining faoliyatini samarali tashkil etish 28

S.M.Abduxamidov.

O'quvchilarda badiiy-estetik tafakkurini rivojlantirish –
dolzarb pedagogik muammo sifatida 30

B.B.Baymetov.

Tasviriy san'atda talabalar ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda individual yondashish 32

T.R.Ankabayev.

Tasviriy va amaliy san'atdan to'garak mashg'ulotlarini tashkil etish jarayonida
o'quvchilarning estetik madaniyatini rivojlantirish 33

X.E.Sultanov, A.I.Vapayev, U.X.Xudoyorova.

Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri amalda: hamkorlikning ilk samaralari 35

X.X.Muratov G.D.Isametova, X.U.Kenjayeva.

O'quvchilarning mustaqil ta'limni tashkil etish mazmuni, metodi va vositalari 36

X.E.Sultanov D.Eshpo'latov, Z.Shavkatova, M.Mamatkarimova.

Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri o'quv jarayoni va amaliyot uzviyligining asosi 38

T.S.Achilov, I.R.Choriyev.

Pedagogik ta'lim innovatsion klaster yondashuvida maktab-laboratoriya
tajribasining tarmoqlararo o'zaro hamkorligi asos sifatida 39

S.A.Toshtemirova.

Ta'lim va tarbiyaning demokratik hamda insonparvarlik tamoyili 42

A.Yo.Shadiyev.

Jismoniy mashqlar bo'lajak pedagogik kadrlarni kasbiy tayyorlashda muhim vosita sifatida 43



BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINI GRAFIK MATERIALLARDA ISHLASHGA O'RGATISH ORQALI IJODIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

U.Sh.Ismatov, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika Instituti, "Tasviriy san'at" kafedrasida o'qituvchisi

Данная статья посвящена подготовке будущих учителей изобразительного искусства в высших учебных заведениях нашей страны к работе с различными графическими материалами.

Ключевые слова и понятия: компетенция, техника, графический материал, высшее образование, технология, стиль, искусство, творчество, педагог, художник.

The article discusses the concept of a cluster, radical reforms in the country's education system, the role of innovative clusters of teacher education in the development of higher and general secondary education, self-development of higher educational

Keywords and concepts: cluster, cluster of teacher education, innovation, scientific pedagogy, integration, trends, forecasting.

Ma'lumki bugungi kunda oliy ta'lim muassalaridagi o'quv tarbiya jarayonini, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda kompetensiyaviy yondashuvlar asosida ta'lim jarayonini tashkil etish kabi muhim vazifalar, talabalarning bilim olishini faollashtirish, ularni intellektual rivojlantirish, fanga oid maxsus kompetensiyalarini shakllantirishda yangi g'oyalarni topish va amaliyotga tatbiq etishni nazarda tutadi. Bu esa, har tomonlama yetuk, komil insonni shakllantirish masalasining ko'p qirrali va murakkabligi tasviriy san'at darslaridagi pedagogik kompetensiya muammosining hozirgi zamon ta'lim nazariyasi va amaliyoti uchun muhimligini ko'rsatib beradi.

Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida yuksak malakali, ijodkorlik va tashabbuskorlik qobiliyatiga ega, kasbiy, hayotiy muammolarni mustaqil hal qila oladigan, yangi texnika va texnologiyalarga tez moslashuvchan layoqatli kadrlarni tayyorlash, ta'lim jarayonini kompetensiyaviy yondashuvlar bilan ta'minlash masalalariga davlat siyosati darajasidagi ustuvor yo'nalish sifatida e'tibor qaratilgan.

Bo'lajak zamonaviy tasviriy san'at o'qituvchisining kompetensiyasi – o'z mutaxassisligi va ixtisosligi doirasida chuqur bilim, ko'nikma, malakaga ega bo'lishi va egallagan bilimni talabalarga yetkazib bera olishi bilan belgilanadi.

Hozirgi zamon oliy ta'lim tizimida rassom-o'qituvchilarning ijodiy ish faoliyatini o'rganish va tahlil qilish, pedagogik faoliyatni hozirgi zamon talablaridan kelib chiqqan holda tashkil etish, ularning kasbiy tayyorgarlik mazmuni va o'qitish metodlarini takomillashtirishga bag'ishlangan maqsadli izlanishlar olib borish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

Zamonaviy bo'lajak pedagog-rassomlarning oldiga turgan eng asosiy vazifa mutaxassislik fani yuzasidan quyidagi bilimlarni yaxshi egallashdan iborat:

- Tasviriy san'at tarixini chuqur o'zlashtirgan bo'lishi.
- Tasviriy san'at tur va janrlari haqida ma'lumotga ega bo'lishi;
- Tasviriy san'atga oid terminlarni yaxshi bilishi;
- Tasviriy san'atga oid grafik materiallar va ularda ishlash texnikalarini yaxshi bilishi;
- Ta'lim oluvchi talabaning qobiliyati, tushunchasi, qiziqishlari haqida ma'lumotga ega bo'lishi va rivojlantirish xususiyatlarini bilishi;
- Xorij va O'zbek rassomlarining ijodlarini o'rganishi; umuminsoniy va umummadaniy qadriyatlardan xabardor bo'lishi va ulardan faoliyati mobaynida foydalana olishi;
- O'z fanini mukammal bilishi, o'z ustida ko'proq ishlashi va o'z ijod yo'liga ega bo'lishi lozim.
- Hozirgi kundagi rivojlanib borayotgan zamonaviy texnika va texnologiyalarda ishlashni bilishi va amaliyotda qo'llay olishi lozim.

Shu kunga qadar ko'plab rassomlar tomonidan har xil grafik materiallardan, turli uslub va texnikalardan foydalangan holda

ijodiy asarlar yaratib kelishmoqda. Albatta bu izlanishlar o'z samarasini berib kelmoqda. Bugungi kunda ham zamonaviy tasviriy san'at o'qituvchilarini turli grafik materiallar bilan ishlashga o'rgatilsa; bo'lajak pedagog-rassomning sevimli materialini tanlashiga, his-tuyg'ularini tomoshabinga aniqroq yetkazishiga, o'z ijod yo'lini topishiga ulkan hissa qo'shgan bo'lamiz. Bunda har bir pedagog-rassom o'z xohishi, qiziqishi va maqsadiga qarab, turli xil badiiy materiallardan foydalanishni o'rganadi. Masalan; rangtasvirda; – akvarel, guash, moybo'yoq, grafikada - qalam, ko'mir, sangina, sous, tush kabilardan.

Rassom o'zining xohishiga qarab o'zi uchun qulay, yorqinroq ifoda etadigan, hissiy ichki holatini yetkaza oladigan materialni o'zi tanlaydi va ijodiy asarlarida keng foydalanadi. Buning uchun u albatta bir qancha grafik materiallarda ijod qilib ko'rgan bo'lishi, ularni ishlash texnikasi, xususiyatlari va qo'llanilish imkoniyatlarini yaxshi bilishi lozim.

Shu bilan birga barkamol insonni tarbiyalash o'qituvchidan nafaqat o'z sohasini yaxshi bilishi, balki pedagoglik kompetensiyasiga ham ega bo'lishlikni, ulkan mahorat va mas'uliyatni ham talab qiladi. Ustozlik mahorati va tarbiyachilik san'atining tayyor andozasi yoki qolipi mavjud emas. Ushbu san'atni egallash uchun insondan katta kuch, ijodkorlik va ko'p yillik tajriba talab etiladi. O'qituvchining ko'p qirrali faoliyati, qobiliyati, ijodkor va fidoyi bo'lishi hamda shogirdlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalash davlat siyosati darajasidagi dolzarb masalalardan biridir. Shu sababli ham zamonaviy tasviriy san'at o'qituvchilari pedagogik kompetensiyasiga mos bo'lishlari lozim.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim subyektlari bo'lmish – o'qituvchi va tahsil oluvchi kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishni ta'lim nazariyasi hamda amaliyotidagi muhim pedagogik hodisa sifatida tadqiq etish davom etmoqda. Shunday ekan, oliy ta'lim muassalarida faoliyat yuritayotgan zamonaviy tasviriy san'at o'qituvchisining kompetensiyasi – yuksak darajadagi pedagogik faoliyatning taraqqiy etishi, pedagogik texnikaga ega bo'lish darajasi, o'z kasbini mukammal egallagan bo'lishi, tasviriy san'atga oid grafik materiallar va ularda ishlash texnikalarini yaxshi bilishi, shuningdek, pedagog shaxsi, uning tajribasi va kasbiy faoliyatidagi individuallikning yorqin ko'rinishi sifatida tushuniladi. Jamiyatimiz talab etayotgan har tomonlama yetuk, raqobatbardosh kadrlarni yetishtirishda kompetensiyaviy yondashuvlar asosida ta'lim jarayonini tashkil etish talab etiladi. Pedagog rassom ta'lim berish jarayonida olgan bilimlarini ijodiy kompetensiyalariga tayangan holda amaliyotga qo'llay olsa; bilim va metodlarni vaziyatga qarab moslashtirish qobiliyatiga ega bo'lsa, o'zi tayyorlayotgan bo'lajak mutaxassislarda tasviriy san'at sir asrorlari haqida yetarlicha ma'lumot bera olsa, ular o'rtasidagi ijodiy muhitni yaratishi va zamonaviy raqobatbardosh pedagog-rassomlarni tayyorlashda xizmat qila olsa, demak maqsadimizga erishgan bo'lamiz.



Adabiyotlar

1. Shahzoda Abdullayeva "Xalq ta'limi" ilmiy-metodik jurnali. № 6. T-2018.y, 21-26 b. www.xtjurnali.zn.uz
2. Байметов Б.Б., Собиров С.Т., Исмаатов У.Ш. "Проблемы профессионально-педагогической подготовки учителей изобразительного искусства" Международный научный журнал «ВЕСТНИК НАУКИ» № 7 (16) Том 1.2019. 63-66.

3. Ismatov U.Sh., Technologies of working on graphic materials in fine arts classes (on the example of working still life in the pen. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 4, 2020 Part II ISSN 2056-5853., 41-45 b

4. Ismatov U.Sh., Application of innovation in teaching process. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 5, 2020 Part II ISSN 2056-5854; 4-8 b.

CHIZMACHILIK DARSLARIDA AUTOCAD DASTURIDAN FOYDALANISHNING YUTUQ VA KAMCHILIKLARI TAHLILI

I.O.Jumayev, Toshkent viloyati Chirchiq pedagogika instituti o'qituvchisi

В статье представлен сравнительный анализ преимуществ и недостатков уроков рисования в AutoCAD, процесса рисования некоторых тем с помощью компьютерных программ и ручного рисования.

Ключевые слова и понятия: объект, техника, очевидное, мастерство, плоскость, прямая, форма, поверхность, круг, точка.

This article deals with the coaching methodology in the formation of educational and cognitive competence of students, the principles of this methodology, the way they are carried out.

Key words and concepts: education, upbringing, knowledge, abilities, skills, pedagogical technology, competence, coaching, methodology, constructive, idea, resource, principle, goal,


Chizmachilik darslari uchun AutoCAD dasturidan har doim ham foydalanish biz kutgan natijani beravermaydi. Asosan chizmachilik darslaridan maqsad talabalarga kelajakda o'zlarining texnik fikrlarini chizma orqali namoyon qilish, tasvirlangan har qanday buyum, yoki obyektlarning chizmasi bo'yicha ishlash printsiplari va konstruktiv tuzilishini tushunib olish va tasavvur qila olish uchun bilim, ko'nikma va malaka berishdan iborat.

qaray olmaymiz. Chunki dastur o'quvchiga dars berish maqsadida emas, balki muhandisning ishini osonlashtirish va aniq chizmalar asosida talabga javob beradigan loyihalar ishlab chiqilishi maqsadida yaratilgan.

Chizmachilik fanida buyum va inshootlarni grafik tasvirlash metodlarini o'rganishga oid bo'lgan asosiy qoidalar, tegishli standartlar hisobga olingan holda bayon etiladi. Agar biz AutoCAD dasturini chizmachilik fanlarida doimo qo'llab boradigan bo'lsak, o'quvchilar chizmalar chizish qoidalarini va mazmunini tushunishdan chetda qolishlari bizga yaqqol ayon. Shuning uchun ham AutoCAD dasturini ba'zi mavzulardagina dars samaradorligini oshirish, dars jarayonini o'quvchilarning mavzuni tushunishlarini tezlashtirishni maqsad qilib olgan holdagina, o'qituvchi uchun texnik yordamchi vosita sifatida qarab foydalanish o'rinni.

Bizga ma'lumki, AutoCAD dasturining 3D panelidan hajmli ob'ektlar ustida ishlagandagina foydalanamiz. Chizmachilik o'qituvchilari uchun AutoCAD dasturining 3D bo'limi detallarning yaqqol tasvirini o'quvchilarga ko'rsatishda juda qo'l keladi. Biz dasturining ushbu oynasida prizma, uchburchakli prizma, silindr, konus va shunga o'xshash sirtli shakllarni bernalol qurishimiz mumkin. Ammo detallarni qirqib ko'rsatish kerak bo'lib qolganda biz tayyor tekislik bilan emas, o'quvchilarga uni prizma orqali kesib ko'rsatishga majbur bo'lamiz. (1-rasm)

Misol qilib oladigan bo'lsak chizmachilik fanining "geometrik chizmachilik" bo'limidagi mavzularni o'quvchilarga tushuntirishda AutoCAD dasturidan foydalanish umuman noo'rini. Sababi ushbu bo'lim chizmachilik fanining dastlabki bo'limlaridan biri bo'lganligi uchun quyidagi mavzular: aylanalarni teng bo'laklarga bo'lish, tutashma bajarish qoidalari, oval va ovoid yasash tartibi, Lekalo egri chiziqlari - algebraic va transcendent egri chiziqlar, masalan ikkinchi tartibli egri chiziqlarni yasash qoidalari, sikloida, episikloida, sinusoida, kosinusoida, spiral, o'ramalarni chizish tartiblari shu bo'limdan joy olgan.



1-rasm a,b,c,d.

Yuqoridagi mavzularni AutoCAD dasturida o'tish o'qituvchi uchun qulay bo'lishi, vaqtni tejashi mumkin, ammo bunday holatda o'qituvchi o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsadiga erisha olmaydi, o'quvchilar chizmalarni faqatgina ko'r-ko'rona bajarishi natijasida ularning savodsiz bo'lib qolishlariga olib keladi. Bu bo'limni bilish esa chizmachilik fanining qolgan bo'limlarining asosi sifatida qaraladi, hamda chizmachilikning hamma bo'limlari chambarchas bog'liqligini hisobga olgan holda buni o'quvchi qo'lda oddiy o'quv qurollari yordamida chizgani ancha natija beradi: o'quvchi mavzu haqida ko'proq bilimga ega bo'ladi, chizma chizishda malakasi oshib unda shu mavzu yuzasidan ko'nikma hosil bo'ladi. Pedagog darslarda AutoCAD dasturidan foydalanishdan avval yuqoridagi bilimlarni nazariy jihatdan mukammal egallashlari, shundan keyingina dasturdan foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

Bundan ko'rinib turibdiki AutoCAD (2006 va 2007) dasturida biz tekislikni ko'rsatib bera olmaymiz. Natijada chizma geometriya va shunga o'xshash fanlarda dasturdan foydalanish biroq noqulayliklar tug'dirishini xulosa qilishimiz mumkin. Chunki chizma geometriya fanidan biz asosan to'g'ri chiziq, tekislik va shunga o'xshash shakl va sirtlarning o'zaro vaziyatini o'rganamiz, pozitsion va metrik masalalar ishlaymiz. Ammo bunday noqulayliklarni yuqorida keltirilib o'tilgan misol kabi qo'lda tuzatish imkoniyatiga egamiz. Nafaqat tekislik balki to'g'ri chiziqlar ustida bajariladigan amallarda ham shunday muammolar yuzaga keladi.

Chizmachilik fanining qolgan ba'zi bo'limlarida ham shunday holatlar uchrashi mumkin, bunda pedagog qaysi mavzuda dasturdan foydalanishi muhim ahamiyatga ega. Bunda o'qituvchi dasturdan to'g'ri va o'rinni foydalana olish mahoratiga ega bo'lish uchun undan pedagogik bilim, yillar davomida oshirib kelayotgan malakasiga ega bo'lishi, tanlangan dars uchun mukammal dars ishlanmasi ishlab chiqqan bo'lishi, yaxshi natijaga erishishiga ishonch talab etiladi.

Yuqorida keltirilgan misolni AutoCAD dasturining kamchiligi deb



O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH VA PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK RESPUBLIKA TASHXIS MARKAZI

BICHUVCHI

Bichuvchi - mavjud qoida, ko'rsatmalarga rioya qilgan holda ma'lum bir chizma asosida andozalar bilan ishlaydi

ISH FAOLIYATINING MAZMUNI VA ISH SHARTI

Xizmat ko'rsatish sohasidagi usta bo'lib, buyurtmalarni libos tuzilishiga asoslanib bichadi.

- mijozdan o'Ichovlarni oladi;
- konstruksiyasini tayyorlab, modellashtadi.
- mato bo'yicha namunaning maketini tadbliq etadi.



MUTAXASSISLIKGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Bichish mashinalari uchun umumiy qurilma va qoidalar, bichish ishlarining texnikasi va tashkil etilish qoidalari, usullari, matolarni kesish yo'llari, kompozit qurilishdagi matoning plastik xususiyatlar.

KASBIY O'SISH ISTIQBOLLARI

- 1) bosqich - stajyor;
- 2) bosqich - master.
- 3) bosqich - sex boshlig'i;
- 4) bosqich tadbirkor.



KASB TIPI "ODAM - BADIY OBRAZ"

MUTAXASSISNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI

Qo'l mehnatiga moyilligi, xizmat ko'rsatishga moyilligi, ijodiy faoliyatga moyilligi, aniqlik, qat'iyatlik, sabr-toqat.

KASB EGALLASH YO'LLARI VA QO'LLANISH SOHASI

Kasb-hunar sohasidagi asosiy bilimlarni umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida hamda kiyimlarni tikish va ta'mirlash ustaxonalarida olishi mumkin;

- fabrikalar;
- xususiy korxonalar;
- ta'lim kombinatlari;
- shuningdek, bichuvchilar o'zlariga tegishli bo'lgan vazifalar va shaxsiy buyurtmalarni bajarishlari mumkin.


TURDOSH KASBLAR

Dizayner - modeler (tikuv, charm buyumlari, poyafzal) modeler - konstruktor, tikuvchilik ishlab chiqarish texnologii.



TIBBIY MONELIK

- o'tkir oshqozon-ichak kasalliklari;
- allergik kasalliklar;
- tayanch harakat tizimi kasalliklari;
- yurak-qon tomir kasalliklari;
- umurtqa pog'onasi kasalliklari;
- eshitish va ko'rish organlari kasalliklari;
- yuqumli teri kasalliklari;
- yuqori nafas yo'llari kasalliklari.



facebook.com/tashxismark
az1t.me/hiyotgaqoshil
www.tashxis.uz
t.me/tashxismarkuzi

COVID-19 BILAN KASALLANISH XAVFINI KAMAYTIRISH



Yo'tal yoki akxa urish paytida og'iz va burningizni bukilgan tirsagingiz bilan berkiting



Qo'llaringizni sovun bilan iloji boricha tez-tez yuving



Yo'talayotgan, isitma yoki nafas qisilishi bor odam bilan kamida 2 metr masofa saqlang



Ko'zlaringiz, burningiz va og'zingizga tegmang

AGAR SIZDA YO'TAL, ISITMA YOKI NAFAS QISILISHI KUZATILSA ZUDLIK BILAN SHIFOKORGA MUROJAAT QILING!